Abstract. The theoretical foundations, classical and modern models, and international experience in credit risk assessment and credit scoring methodology for retail lending are comprehensively examined. The assessment framework based on PD (Probability of Default), LGD (Loss Given Default), and EAD (Exposure at Default) components developed by the Basel Committee, the IFRS 9 approach to calculating expected credit losses ($EL = PD \times LGD \times EAD$), and the significance of debt-burden indicators such as DTI, DSTI,



and LTV in credit risk assessment are examined from a scientific perspective. The evolution of credit scoring models is analyzed from the discriminant-analysis-based approaches of D. Durand (1941) and E. Altman (1968) to the XGBoost algorithm developed by T. Chen and C. Guestrin (2016) and modern deep neural networks. The experience of the United States, the United Kingdom, Germany, China, India, South Korea, Singapore, Türkiye, and Russia in credit risk assessment and the application of credit scoring systems is comparatively analyzed, and relevant implications for Uzbekistan's banking practice are identified. Drawing on international experience, scientific and practical recommendations are developed to improve credit scoring methodology, expand the use of alternative data, and enhance the effectiveness of individual credit risk assessment in Uzbekistan.

Keywords: credit scoring, credit risk, PD, LGD, EAD, IFRS 9, machine learning, XGBoost, DTI, DSTI, LTV, credit bureau, international experience, financial inclusion.

KIRISH

Zamonaviy bank amaliyotida jismoniy shaxslarni kreditlashning samarali tashkil etilishi ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlarga tayanadi. Aynan qarz oluvchining kredit layoqatligini to'g'ri baholash, kredit riskini miqdoriy o'lchash va kredit portfelining risk-daromadlilik nisbatini optimallashtirish jismoniy shaxslarni kreditlashning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi asosiy shartlar hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda so'nggi ikki o'n yillikda kredit skoring va risk-menejment sohasida muhim metodologik yangiliklar yuz berdi: mashinaviy o'rganish algoritmlari, muqobil ma'lumotlardan foydalanish, real vaqt rejimidagi skoring va tushuntirilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt (Explainable AI) sohasidagi tadqiqotlar bank amaliyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston bank tizimida ham raqamli transformatsiya jarayoni jadal davom etmoqda: 2020–2025-yillar davomida bank mobil ilovalarining faol foydalanuvchilari soni 4,2 mln.dan 28,3 mln.gacha (6,7 marta) oshdi, onlayn beriladigan kreditlar ulushi 5 foizdan 68 foizgacha (13,6 marta) kengaydi, MyID orqali kredit rasmiylashtirish ulushi esa 3 foizdan 65 foizgacha oshdi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar kredit portfelida NPL darajasi 2020-yildagi 1,3 foizdan 2025-yilga kelib 3,5 foizga, mikroqarz segmentida esa 3,6 foizdan 8,4 foizga o'zgardi. Bunday sharoitda kredit skoring metodologiyasini takomillashtirish va xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi — jismoniy shaxslarni kreditlashda kredit riskini baholash va kredit skoring metodologiyasining nazariy hamda uslubiy asoslarini, xalqaro amaliyotdagi yetakchi modellarini tadqiq etish hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit riskini baholash va kredit skoring metodologiyasining nazariy asoslari dastlab statistik klassifikatsiya va diskriminant tahlil usullari bilan shakllangan. R. A. Fisher ko'p o'lchovli belgilar asosida obyektlarni guruhlariga ajratish metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lsa [1], D. Durand iste'mol kreditlarida qarz oluvchilarning risk darajasini baholashga qaratilgan dastlabki skoring yondashuvlaridan birini taklif etgan [2]. E. I. Altman moliyaviy ko'rsatkichlar asosidagi Z-skor modelini ishlab chiqib, kreditga layoqatlilikni diskriminant tahlil orqali baholash imkoniyatlarini kengaytirgan [3]. J. A. Ohlson logistik regressiyaga asoslangan ehtimollik modelini taklif etib, defolt ehtimolini miqdoriy baholash metodologiyasini rivojlantirgan [4]. J. E. Stiglitz va A. Weiss esa axborot assimetriyasi sharoitida kredit bozoridagi qarorlar va kredit riskining shakllanish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslab bergan [5].

Keyingi tadqiqotlarda kredit skoring modellarining aniqligi va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan zamonaviy statistik va mashinaviy o'rganish usullari rivojlantirildi. C. Cortes va V. Vapnik tomonidan ishlab chiqilgan tayanch vektorlar usuli yuqori o'lchamli ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirgan [6], D. J. Hand va W. E. Henley esa iste'mol kredit skoringida qo'llaniladigan statistik klassifikatsiya usullarini tizimli ravishda umumlashtirgan [7]. L. C. Thomas kredit va xulq-atvor skoringi metodlarini tahlil qilib, ularning chakana kreditlashdagi ahamiyatini asoslab bergan [8]. L. Breiman tomonidan taklif etilgan Random Forest algoritmi [9], B. Baesens va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan algoritmlarni qiyosiy baholash [10], shuningdek, A. E. Khandani, A. J. Kim va A. W. Loning kredit riskini mashinaviy o'rganish orqali baholash bo'yicha tadqiqotlari [13] zamonaviy kredit skoring tizimlarining empirik asoslarini mustahkamlagan. S. Lessmann va hammualliflar [15] hamda T. Chen va C. Guestrin [16] ishlari esa ansambl va gradient boosting modellarining kredit riskini bashorat qilishdagi yuqori samaradorligini ko'rsatgan.



So'nggi ilmiy adabiyotlarda kredit skoring tizimlarini raqamlashtirish, muqobil ma'lumotlardan foydalanish va modellarni izohlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. J. Frost va hammualliflar BigTech kompaniyalarining moliyaviy vositachilikka ta'sirini tahlil qilgan [20], P. Bracke va hammualliflar moliyaviy modellarni tushuntiriladigan shaklda qo'llash mexanizmlarini yoritgan [21], M. Bazarbash esa moliyaviy inklyuziyada mashinaviy o'rganishning kredit riskini baholashdagi rolini asoslagan [22]. J. Jagtiani va C. Lemieux [23], T. Berg va hammualliflar [24], G. Cornelli va hammualliflar [25], X. Dastile va hammualliflar [26] hamda V. B. Djeundje va hammualliflar [27] muqobil va raqamli ma'lumotlarning kredit skoring aniqligini oshirish imkoniyatlarini empirik jihatdan ko'rsatgan. O'zbekiston sharoitida esa Sh. Z. Abdullayevaning bank risklarini boshqarish bo'yicha tadqiqotlari kredit riskini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishi bilan ahamiyatlidir [31].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ekonometrik-statistik va qiyosiy tahlil metodlariga tayanadi. Foydalanilgan asosiy usullar quyidagilardan iborat: (1) Bazel qo'mitasi hujjatlari (2004; 2017) va IFRS 9 (IASB, 2014) me'yoriy hujjatlarining kontent-tahlili; (2) kredit skoring modellari — logistik regressiya, diskriminant tahlil, tasodifiy o'rmon, gradient boosting va neyron tarmoqlarning qiyosiy tahlili; (3) yetakchi mamlakatlarning kredit skoring va kredit byurosi tizimlarining institutsional tahlili; (4) O'zbekiston bank tizimining statistik ma'lumotlarini xalqaro standartlar bilan qiyoslash.

Nazariy asos sifatida quyidagi tadqiqotlar tanlab olindi: klassik kredit skoring tadqiqotlari (D. Durand, 1941; R. A. Fisher, 1936; E. Altman, 1968; J. Ohlson, 1980; D. J. Hand va W. E. Henley, 1997; L. C. Thomas, 2000); mashinaviy o'rganish sohasidagi asarlar (L. Breiman, 2001; C. Cortes va V. Vapnik, 1995; T. Chen va C. Guestrin, 2016); muqobil ma'lumotlar bo'yicha yangi tadqiqotlar (T. Berg va boshqalar, 2020; J. Jagtiani va C. Lemieux, 2019); tushuntirilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt bo'yicha ishlar (P. Bracke va boshqalar, 2019; M. Bazarbash, 2019); benchmarking tadqiqotlari (B. Baesens va boshqalar, 2003; S. Lessmann va boshqalar, 2015; X. Dastile va boshqalar, 2020).

TAHLIL VA NATIJALAR

Kredit riskining Bazel yondashuvi bo'yicha komponentli tuzilmasi. Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan yondashuvga ko'ra (Basel Committee, 2004; 2017), kredit riski uch asosiy komponentdan tashkil topadi. Defolt ehtimoli (PD — Probability of Default) — belgilangan davr (odatda 12 oy) davomida qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmaslik ehtimoli. Defolt holatidagi yo'qotish darajasi (LGD — Loss Given Default) — defolt sodir bo'lganidan keyin bank tomonidan qoplab olinmagan yo'qotish miqdorining defolt vaqtidagi kredit ekspozitsiyasiga nisbati: $LGD = 1 - RR$, bu yerda RR — qaytarish darajasi. Defolt vaqtidagi kredit ekspozitsiyasi (EAD — Exposure at Default) — defolt yuzaga kelgan paytda qarz oluvchining bank oldidagi jami majburiyatlari summasi. Kredit kartalari uchun $EAD = \text{Balans} + CCF \times (\text{Limit} - \text{Balans})$ formulasidan foydalaniladi, bu yerda CCF — kredit konversiyasi koeffitsienti.

Ushbu uch komponentning ko'paytmasi natijasida kutilayotgan kredit yo'qotishlari (Expected Loss, EL) hisoblanadi: $EL = PD \times LGD \times EAD$. Bu ko'rsatkich IFRS 9 (IASB, 2014) asosidagi zaxira siyosatining nazariy asosini shakllantiradi va bank kapitalining yetarililigini hisoblashda Bazel III doirasida qo'llaniladi.

Kredit skoring modellarining evolyutsiyasi va qiyosiy tahlili. Kredit skoringning nazariy asoslari D. Durand (1941) tomonidan e'lon qilingan «Iste'mol kreditidagi risk elementlari» tadqiqotidan boshlab shakllana boshlagan. Keyinchalik R. A. Fisherning (1936) chiziqli diskriminant tahlili va E. Altmanning (1968) Z-skor modeli kredit skoringning matematik asosini yaratdi. J. Ohlson (1980) esa logistik regressiyaga asoslangan O-skor modelini ilgari surib, defolt ehtimolini (0 dan 1 gacha bo'lgan interval sifatida) bashorat qilishning zamonaviy metodologiyasini shakllantirdi.

So'nggi yigirma yilda mashinaviy o'rganish algoritmlarini kredit skoringda qo'llash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi: qaror daraxtlari va tasodifiy o'rmon (L. Breiman, 2001), qo'llab-quvvatlovchi vektorlar usuli (C. Cortes va V. Vapnik, 1995), gradient boosting va XGBoost (T. Chen va C. Guestrin, 2016) hamda chuqur neyron tarmoqlar keng qo'llanilmoqda. S. Lessmann va boshqalar (2015) tomonidan olib borilgan qiyosiy tadqiqot gradient boosting va tasodifiy o'rmon kabi ansambl modellari klassik logistik regressiyaga qaraganda 5–15 foizga aniqroq bashorat berishini ko'rsatdi. A. Khandani, A. Kim va E. Lo (2010) AQSh iste'mol krediti bozori ma'lumotlari asosida mashinaviy o'rganish modellari yordamida kutilayotgan yo'qotishlarni 6 foizdan 25 foizgacha kamaytirish mumkinligini empirik jihatdan tasdiqladi.



1-jadval
Kredit skoring modellarining qiyosiy tahlili¹

Model	Metodologik asos	Afzalliklari	Chegaralari
Logistik regressiya	Statistik-ehimoliy	Oson izohlanadi; regulyator tomonidan tan olingan	Chiziqsiz bog'liqliklarni to'liq qamrab olmaydi
Diskriminant tahlil (Altman, 1968)	Statistik klassifikatsiya	Ikki sinfga ajratishning oddiy modeli	Normal taqsimot talabi; qamrov imkoniyati cheklangan
Qaror daraxtlari	Iyerarxik bo'lish	Chiziqsiz bog'liqliklarni aniqlaydi; izohlanadi	Ko'p tarmoqlanishda overfitting ehtimoli mavjud
Random Forest (Breiman, 2001)	Ansaml (bagging)	Yuqori aniqlik; overfittingga chidamli	Izohlanuvchanlik darajasi nisbatan cheklangan
SVM (Cortes, Vapnik, 1995)	Optimal ajratuvchi giperplan	Yuqori o'lchamli ma'lumotlar bilan samarali ishlaydi	Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash ko'proq vaqt talab etadi
XGBoost (Chen, Guestrin, 2016)	Gradient boosting	Ansaml modellari orasida yuqori aniqlik	Katta hisoblash resurslari va parametrlarni sozlashni talab etadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir model o'ziga xos afzalliklar va chegaralarga ega. Zamonaviy bank amaliyotida ko'pincha modellarning kombinatsiyasi qo'llaniladi: birinchi bosqichda logistik regressiya asosida oldindan tanlov amalga oshiriladi, keyinchalik XGBoost asosida yakuniy skor hisoblanadi. Bu izohlanuvchanlik va aniqlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi.

Kredit skoring modellarini baholash mezonlari. Kredit skoring modellarining sifatini baholashda quyidagi statistik ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi: AUC-ROC (Area Under the Receiver Operating Characteristic Curve) — modelning «yaxshi» va «yomon» mijozlarni ajratish qobiliyatini o'lchovchi universal ko'rsatkich. Uning qiymati 0,5 dan 1 gacha bo'lib, 0,7 dan yuqori qiymat «yaxshi», 0,8 dan yuqori qiymat esa «juda yaxshi» model sifatida baholanadi. KS statistikasi (Kolmogorov–Smirnov) — defolt va nondefolt taqsimotlari orasidagi maksimal masofani ifodalaydi. Gini koeffitsienti $Gini = 2 \times AUC - 1$ formulasi orqali AUC bilan bevosita bog'liq. Brier ballari va model kalibratsiyasi ehtimoliy bashoratlarning haqiqiy natijalarga mos kelish darajasini o'lchaydi (B. Baesens va boshqalar, 2003; V. B. Djeundje va boshqalar, 2021).

Qarz yuklamasi ko'rsatkichlari (DTI, DSTI, LTV) va ularning nazariy asoslari. Jismoniy shaxslarni kreditlashda qarz yuklamasini baholashning muhim vositalari sifatida DTI (Debt-to-Income), DSTI (Debt Service to Income) va LTV (Loan-to-Value) koeffitsientlari qo'llaniladi. $DTI = \sum Qi / D$, bu yerda Qi — i-kredit bo'yicha oylik to'lov, D — qarz oluvchining oylik yalpi daromadi. Xalqaro amaliyotda DTIning maqbul chegarasi daromadning 40–50 foizi sifatida belgilanadi (Durkin va boshqalar, 2014). $LTV = L / V$ formulasi bo'yicha hisoblanadi, bu yerda L — kredit summasi, V — garovga qo'yilgan aktivning bozor qiymati. Ipoteka kreditlarida xalqaro amaliyotda LTVning maqbul darajasi 80 foiz chegarasida belgilanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar makroprudensial nazorat vositalari sifatida ham keng qo'llaniladi. H. Minskining (1986) moliyaviy beqarorlik gipotezasi va 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz tajribasi asosida A. Mian va A. Sufi (2014) hamda O. Jordà, M. Schularick va A. Taylor (2016) ushbu instrumentlarning tizimli barqarorlikni ta'minlashdagi rolini asoslab berdilar.

IFRS 9 asosidagi uch bosqichli tasnif tizimi. Xalqaro moliyaviy hisobot standarti IFRS 9 (IASB, 2014) doirasidagi uch bosqichli tasnif quyidagicha ishlaydi: Stage 1 — kredit riski dastlabki tan olinganidan beri sezilarli darajada oshmagan aktivlar (12 oylik EL xaxira sifatida); Stage 2 — kredit riski sezilarli darajada oshgan, ammo defoltga uchramagan aktivlar (butun umr EL); Stage 3 — defoltga uchragan aktivlar (butun umr EL, LGD 55–70 foiz). Ushbu tasnif bank tomonidan kelajakda kutilayotgan yo'qotishlarga oldindan tayyorgarlik ko'rishning zamonaviy metodologik asosini shakllantiradi.

Xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili. Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarni kreditlashning zamonaviy modellari to'rt asosiy guruhga birlashtirilishi mumkin: Anglo-sakson modeli (AQSh, Buyuk Britaniya), kontinental Yevropa modeli (Germaniya, Fransiya), Osiyo raqamli modeli (Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Singapur) va islom moliyasi modeli. Har bir model o'ziga xos institutsional va texnologik konstruksiyaga ega.

AQShda kredit skoringning eng nufuzli tizimi Fair Isaac Corporation tomonidan ishlab chiqilgan FICO Score (300–850 shkalasi) bo'lib, u to'rtta yirik kredit byurosi (Equifax, Experian, TransUnion, Innovis) tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarga tayanadi. AQSh kredit byurolarining qamrovi katta yoshdagi aholining 100 foizga

1 Muallif ishlanmasi



yaqinini tashkil etadi. So'nggi yillarda fintex kompaniyalarining (LendingClub, Prosper, SoFi) chakana kreditlash bozoridagi ulushi sezilarli darajada oshdi (J. Frost va boshqalar, 2019; G. Cornelli va boshqalar, 2020).

Buyuk Britaniyada Experian, Equifax va TransUnion tomonidan yig'iladigan Credit Score (0–999) va ClearScore kabi iste'molchi mahsulotlari qo'llaniladi. Germaniyada Schufa Holding AG (1927-yilda tashkil topgan) 68 mln aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va 0 dan 100 gacha bo'lgan shkalada skorlashtiradi. Consumer Credit Directive II (2023) esa Yevropa Ittifoqi doirasida iste'mol kreditlari bozorida ma'lumotlarni ochish va iste'molchilarni himoya qilish talablarini belgilaydi.

Xitoy tajribasi jismoniy shaxslarni raqamli kreditlash sohasida ilg'or amaliyot namunalaridan birini namoyon etadi. Ant Group tomonidan yaratilgan Zhima Credit va WeBank tomonidan qo'llaniladigan skoring modellari milliardlab foydalanuvchilarning e-tijorat, ijtimoiy tarmoq va mobil operatsiyalari ma'lumotlariga tayanadi. Hindiston Aadhaar biometrik identifikatsiya va UPI to'lov tizimi orqali moliyaviy inklyuziyani rag'batlantirish bo'yicha ilg'or davlat siyosati namunalaridan birini taqdim etdi (Reserve Bank of India, 2023).

Janubiy Koreya va Singapur davlat-xususiy sherikligi asosidagi raqamli kreditlash modelini samarali qo'llamoqda. Turkiya Bankalararası Kart Merkezi (BKM) va Kredi Kayıt Bürosu (KKB) orqali mamlakat miqyosidagi kredit ma'lumotlari bazasini shakllantirgan bo'lsa, Rossiya bank tizimida NBKI (Milliy Kredit Tarixi Byurosi) chakana kreditlash bozorining asosini tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval
Xorijiy mamlakatlarda kredit byurolari va kredit skoring tizimlarining qiyosiy tahlili²

Mamlakat	Kredit byurosi qamrovi	Skoring shkalasi	O'ziga xos xususiyati
AQSh	≈100 foiz	FICO: 300–850	Bir necha yirik byuro; fintex ekspansiyasi
Buyuk Britaniya	>95 foiz	Experian: 0–999	Ochiq banking (Open Banking)
Germaniya	>90 foiz	Schufa: 0–100	Uzoq tarixiy ma'lumotlar bazasi
Xitoy	≈85 foiz	Zhima Credit: 350–950	BigTech va muqobil ma'lumotlar
Hindiston	>80 foiz	CIBIL: 300–900	Aadhaar + UPI ekotizimi
Janubiy Koreya	≈100 foiz	KCB: 1–1000	Davlat-xususiy sherikligi
Turkiya	>90 foiz	KKB: 0–1900	BKM to'lov tizimi integratsiyasi
Rossiya	>80 foiz	NBKI: 300–850	Sberbank ekotizimi
O'zbekiston	≈70 foiz	Shakllanmoqda	MyID + Kredit axborot markazi

Erta ogohlantirish tizimlari (EWS) va portfel monitoring. Zamonaviy bank amaliyotida jismoniy shaxslar kredit portfeli sifatini uzluksiz monitoring qilish uchun erta ogohlantirish tizimlari (Early Warning Systems, EWS) keng qo'llaniladi. EWS mijozning to'lov intizomi, hisobvaraqlar aylanmasi, bank mahsulotlaridan foydalanish faolligi va tashqi omillar (ish beruvchining kredit reytingi, hududning iqtisodiy holati) asosida yuqori riskli qarzlarni oldindan aniqlab, bank menejerlariga ular bilan proaktiv ish olib borish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba tahlili natijasida O'zbekiston bank tizimi uchun bir qator muhim xulosalar shakllanadi. Birinchidan, rivojlangan mamlakatlarda kredit byurolari qamrovi 90 foizdan yuqori bo'lib, kredit skoring tizimlari standartlashgan tizim sifatida shakllangan. Rivojlanayotgan bozorlar, jumladan, O'zbekiston uchun kredit axborot infratuzilmasini kengaytirish va kredit byurolari qamrovini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, Xitoy, Hindiston va Singapur tajribasi muqobil ma'lumotlardan (telekom to'lovlari, ijtimoiy tarmoqlar, e-tijorat, mobil qurilma ma'lumotlari) foydalanish moliyaviy inklyuziyani sezilarli darajada kengaytirish imkonini berishini ko'rsatdi. T. Berg va boshqalar (2020) hamda J. Jagtiani va C. Lemieux (2019) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar ushbu ma'lumotlarning bashorat qilish imkoniyatlarini tasdiqladi. O'zbekistonda MyID biometrik identifikatsiya tizimi va Kredit axborot markazining mavjudligi ushbu tajribani moslashtirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Uchinchidan, mashinaviy o'rganish modellarining «qora quti» xususiyati ularning tartibga solish organlari talablariga muvofiqligini ta'minlashda izohlanuvchanlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. P. Bracke va boshqalar (2019) hamda EU AI Act (2024) doirasida tavsiya etilgan tushuntirilishi



mumkin bo'lgan sun'iy intellekt (Explainable AI) yondashuvi — SHAP (SHapley Additive exPlanations) va LIME (Local Interpretable Model-agnostic Explanations) usullarini joriy etish O'zbekiston sharoitida ham dolzarb hisoblanadi.

To'rtinchidan, Germaniyaning Schufa Kredit-Kompass (2023), Bank of England (2023) Financial Stability Report va Reserve Bank of India (2022) Guidelines on Digital Lending kabi me'yoriy hujjatlari raqamli kreditlashning huquqiy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston uchun ham tegishli normativ bazani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, IFRS 9 uch bosqichli tasnif tizimi va Bazel III kapital yetarliligi standartlari O'zbekistonda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2025-yil I yarim yillik holatiga ko'ra, bank tizimining jami regulyativ kapital monandligi 17,4 foizni tashkil etib, Bazel III minimal talabidan (12,5 foiz) 4,9 punkt yuqori darajada saqlanmoqda. Bu bank tizimining tarkibiy chidamliligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jismoniy shaxslarni kreditlashda kredit riskini baholash va kredit skoring metodologiyasini tadqiq etish asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi. Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan PD, LGD va EAD komponentlariga asoslangan baholash tizimi hamda IFRS 9 asosida kutilayotgan kredit yo'qotishlarini hisoblash yondashuvi zamonaviy risk-menejmentning universal metodologik apparatini shakllantiradi. Ushbu yondashuvlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi O'zbekiston bank tizimi uchun strategik ahamiyatga ega.

Kredit skoring modellarining evolyutsiyasi klassik logistik regressiyadan zamonaviy XGBoost va chuqur neyron tarmoqlariga o'tish tendensiyasini namoyon etadi. Shu bilan birga, modellarning izohlanuvchanligini va regulyator talablariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida tushuntirilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt (Explainable AI) yondashuvlarini, jumladan, SHAP va LIME usullarini birgalikda qo'llash tavsiya etiladi.

Xalqaro tajribani umumlashtirish asosida O'zbekiston bank amaliyoti uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar aniqlandi: (1) kredit axborot infratuzilmasini kengaytirish va kredit byurolari qamrovini oshirish; (2) muqobil ma'lumotlardan mas'uliyatli tarzda foydalanish; (3) mashinaviy o'rganish modellarini bosqichma-bosqich joriy etish; (4) makroprudensial nazorat vositalarini, jumladan, DTI, DSTI va LTV ko'rsatkichlarini takomillashtirish; (5) erta ogohlantirish tizimlari (EWS) va real vaqt rejimidagi portfel monitoringi tizimlarini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fisher R. A. The Use of Multiple Measurements in Taxonomic Problems // *Annals of Eugenics*. — 1936. — Vol. 7, No. 2. — P. 179–188.
2. Durand D. *Risk Elements in Consumer Instalment Financing*. — New York: NBER, 1941.
3. Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // *The Journal of Finance*. — 1968. — Vol. 23, No. 4. — P. 589–609.
4. Ohlson J. A. Financial Ratios and the Probabilistic Prediction of Bankruptcy // *Journal of Accounting Research*. — 1980. — Vol. 18, No. 1. — P. 109–131.
5. Stiglitz J. E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // *American Economic Review*. — 1981. — Vol. 71, No. 3. — P. 393–410.
6. Cortes C., Vapnik V. Support-Vector Networks // *Machine Learning*. — 1995. — Vol. 20, No. 3. — P. 273–297.
7. Hand D. J., Henley W. E. Statistical Classification Methods in Consumer Credit Scoring: A Review // *Journal of the Royal Statistical Society: Series A*. — 1997. — Vol. 160, No. 3. — P. 523–541.
8. Thomas L. C. A Survey of Credit and Behavioural Scoring // *International Journal of Forecasting*. — 2000. — Vol. 16, No. 2. — P. 149–172.
9. Breiman L. Random Forests // *Machine Learning*. — 2001. — Vol. 45, No. 1. — P. 5–32.
10. Baesens B., Van Gestel T., Viaene S. et al. Benchmarking State-of-the-Art Classification Algorithms for Credit Scoring // *Journal of the Operational Research Society*. — 2003. — Vol. 54, No. 6. — P. 627–635.
11. Basel Committee on Banking Supervision. *International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Basel II)*. — Basel: Bank for International Settlements, 2004.
12. Anderson R. *The Credit Scoring Toolkit: Theory and Practice for Retail Credit Risk Management and Decision Automation*. — Oxford: Oxford University Press, 2007.
13. Khandani A. E., Kim A. J., Lo A. W. Consumer Credit-Risk Models via Machine-Learning Algorithms // *Journal of Banking & Finance*. — 2010. — Vol. 34, No. 11. — P. 2767–2787.
14. International Accounting Standards Board. *IFRS 9 Financial Instruments*. — London: IFRS Foundation, 2014.



15. Lessmann S., Baesens B., Seow H.-V., Thomas L. C. Benchmarking State-of-the-Art Classification Algorithms for Credit Scoring: An Update of Research // *European Journal of Operational Research*. — 2015. — Vol. 247, No. 1. — P. 124–136.
16. Chen T., Guestrin C. XGBoost: A Scalable Tree Boosting System // *Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining*. — 2016. — P. 785–794.
17. Butaru F., Chen Q., Clark B., Das S., Lo A. W., Siddique A. Risk and Risk Management in the Credit Card Industry // *Journal of Banking & Finance*. — 2016. — Vol. 72. — P. 218–239.
18. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms*. — Basel: Bank for International Settlements, 2017.
19. Fuster A., Plosser M., Schnabl P., Vickery J. The Role of Technology in Mortgage Lending // *The Review of Financial Studies*. — 2019. — Vol. 32, No. 5. — P. 1854–1899.
20. Frost J., Gambacorta L., Huang Y., Shin H. S., Zbinden P. BigTech and the Changing Structure of Financial Intermediation // *Economic Policy*. — 2019. — Vol. 34, No. 100. — P. 761–799.
21. Bracke P., Datta A., Jung C., Sen S. *Machine Learning Explainability in Finance*. — Bank of England Staff Working Paper. — 2019. — No. 816.
22. Bazarbash M. *FinTech in Financial Inclusion: Machine Learning Applications in Assessing Credit Risk*. — IMF Working Paper. — 2019. — No. WP/19/109.
23. Jagtiani J., Lemieux C. The Roles of Alternative Data and Machine Learning in Fintech Lending // *Financial Management*. — 2019. — Vol. 48, No. 4. — P. 1009–1029.
24. Berg T., Burg V., Gombović A., Puri M. On the Rise of FinTechs: Credit Scoring Using Digital Footprints // *The Review of Financial Studies*. — 2020. — Vol. 33, No. 7. — P. 2845–2897.
25. Cornelli G., Frost J., Gambacorta L. et al. *Fintech and Big Tech Credit: A New Database*. — BIS Working Papers. — 2020. — No. 887.
26. Dastile X., Celik T., Potsane M. Statistical and Machine Learning Models in Credit Scoring: A Systematic Literature Survey // *Applied Soft Computing*. — 2020. — Vol. 91. — Art. 106263.
27. Djeundje V. B., Crook J., Calabrese R., Hamid M. Enhancing Credit Scoring with Alternative Data // *Expert Systems with Applications*. — 2021. — Vol. 163. — Art. 113766.
28. Reserve Bank of India. *Guidelines on Digital Lending*. — Mumbai: Reserve Bank of India, 2022.
29. European Union. Directive (EU) 2023/2225 of the European Parliament and of the Council on Credit Agreements for Consumers. — 2023.
30. European Union. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). — 2024.
31. Abdullayeva Sh. Z. *Bank risklari va ularni boshqarish: darslik*. — Toshkent: MBTM, 2016.
32. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 28-sentabrdagi 24/5-son qarori. — 2022-yil tahriri.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
